



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M A KTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
<i>Madazizova Difuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
"Qurilish jarayonlari texnologiyasi" fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Said Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Xakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi "muhosaba" va "tafakkur" amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehrining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы	211
Сулейманова Нилуфар Камиловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari	229
Abirova Umida Nazarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
Adhamova Diyora Sanjar qizi	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy	239
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
Hafizov Shahriyor Shavkatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari	248
Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
Kamolova Munajatxon Jaloldinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	259
Mamatova Aziza Bo'riboyevna	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	262
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
Maxkamova Dilafruz Aliyevna	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv	271
Normamatova Kamola Gulmamat qizi	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
S. Sh. Azamatova	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari	277
Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
Xolova Mohigul Shavkatovna	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
Xudoyberganov Atham	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish	291
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление	295
Кадирова Наргиза Азаматовна	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка)	298
Мамырбаева Дина	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	304
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	



TASAVVUFDAKI “KOMIL INSON” KONSEPSIYASINING HOZIRGI TA'LIM TIZIMIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV SIFATIDA TALQINI

Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li
Tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasavvuf ta'limotining markaziy g'oyalaridan biri bo'lgan “komil inson” konsepsiyasi zamonaviy pedagogika, xususan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi nuqtayi nazaridan qayta talqin qilinadi. Sufiylikda insonni ruhiy-axloqiy kamolot sari yetaklovchi bosqichlarning mazmuni, murshid–shogird munosabatining tarbiyaviy modeli, nafsni poklash, muhabbat va xizmat tamoyillari, tariqatning ichki intizomi hamda ijtimoiy mas'uliyat g'oyalari bugungi ta'lim maqsadlari bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda tasavvuf manbalarida shakllangan komil shaxs modeli shaxsning kognitiv, ijtimoiy-emotsional va aksiologik rivojini uyg'unlashtirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim konseptlari bilan mushtarak jihatlarga egaligi asoslanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning “o'quvchi tajribasiga tayanish”, “ichki motivatsiyani uyg'otish”, “ixtiyoriylik va mas'uliyatni uyg'unlashtirish”, “muloqot va hamkorlikni asosiy vosita sifatida qo'llash” kabi tamoyillari tasavvufdagi ruhiy-tarbiyaviy metodlar bilan o'xshash ekani ko'rsatiladi. Maqola xulosalarida tasavvuf merosidan didaktik jihatdan foydalanish uchun uch yo'nalish: qadriyatlarni aktuallashtirish, tarbiya usullarini moslashtirish va ta'lim muhitini insonparvarlashtirish bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: tasavvuf, komil inson, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ruhiy-axloqiy tarbiya, murshid–murid modeli, insonparvarlashtirish, ma'naviy pedagogika.

Abstract: This article reinterprets the concept of the “Perfect Man” (al-insan al-kamil) – one of the central ideas of Sufi philosophy – from the standpoint of modern pedagogy, particularly within the framework of the learner-centered educational approach. The study analyzes the spiritual and ethical stages of human perfection in Sufism, the pedagogical model of the murshid–murid (teacher–disciple) relationship, as well as the principles of self-purification, love, service, inner discipline, and social responsibility, comparing them with the goals of contemporary education. The research demonstrates that the model of the “Perfect Person” developed in Sufi sources shares commonalities with modern educational concepts aimed at integrating cognitive, socio-emotional, and axiological aspects of personality development. It is shown that learner-centered principles such as reliance on student experience, stimulation of intrinsic motivation, harmonization of autonomy and responsibility, and the use of dialogue and cooperation as key methods closely correspond to the spiritual-pedagogical methods of Sufism. The article concludes with three practical directions for incorporating Sufi heritage into education: value actualization, adaptation of moral-training methods, and humanization of the learning environment.

Key words: Sufism, Perfect Man, learner-centered education, spiritual and moral education, murshid–murid model, humanization, spiritual pedagogy.

Аннотация: В данной статье концепция “совершенного человека”, являющаяся одной из центральных идей суфийского учения, интерпретируется с точки зрения современной педагогики, в частности – личностно-ориентированного подхода в образовании. Анализируются духовно-нравственные ступени совершенствования человека в суфизме, педагогическая модель отношений “муршид–мурид”, принципы очищения нафса, любви и служения, внутренняя дисциплина тариката и идеи социальной ответственности в сопоставлении с целями современного образования. В исследовании обосновано, что модель совершенной личности, сформированная в суфийских источниках, имеет общие черты с современными образовательными концепциями, направленными на гармоничное развитие когнитивных, социально-эмоциональных и аксиологических качеств личности. Показано, что принципы личностно-ориентированного обучения – такие как опора на опыт учащегося, стимулирование внутренней мотивации, сочетание свободы выбора и ответственности, использование диалога и сотрудничества – во многом сходны с духовно-воспитательными методами суфийской традиции. В заключении предложены три направления использования суфийского наследия в педагогике: актуализация ценностей, адаптация воспитательных методов и гуманизация образовательной среды.

Ключевые слова: суфизм, совершенный человек, личностно-ориентированное обучение, духовно-нравственное воспитание, модель “муршид–мурид”, гуманизация, духовная педагогика.

KIRISH

Sharq ma'naviy merosining eng ta'sirli qatlamlaridan biri bo'lgan tasavvuf insonni koinotning markaziy ma'nosi sifatida talqin etadi va uning borliqqa bo'lgan munosabatini ruhiy kamolot jarayoni orqali izohlaydi. Tasavvuf ahli nazarida inson yaratilishdan ko'zlangan maqsad faqat tashqi amallarni ado etish emas, balki o'zini Allohga yaqinlashtiruvchi ichki fazilatlarini – ixlos, ihson, muhabbat, adolat va xizmatni – shakllantirishdan iboratdir. Shu bois "komil inson" g'oyasi tasavvufdagi deyarli barcha silsilalarning nazariy va amaliy markazida turadi. Mazkur g'oya insonni bir tomondan ilohiy haqiqatni idrok etuvchi, ikkinchi tomondan jamiyatda boshqalarga naf yetkazuvchi, uchinchi tomondan esa o'z nafsini tarbiyalay oluvchi faol shaxs sifatida talqin etadi.

Zamonaviy ta'lim tizimlari, ayniqsa XXI asrning ikkinchi o'n yilligidan boshlab, bilimni faqat bilim uchun emas, balki shaxsning har tomonlama kamol topishiga xizmat qildirishga intila boshladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar, ijtimoiy-emotsional ta'lim, tarbiyaviy komponentni kuchaytirishga doir konsepsiyalar, "barkamol avlod" va "umrbo'yi ta'lim" g'oyalari aynan shu ehtiyojdan kelib chiqdi. Biroq mazkur yondashuvlar ko'pincha xorijiy nazariy modellar asosida shakllanib, ularning mahalliy ma'naviy madaniyat bilan organik bog'lanishi har doim ham to'liq ta'minlanmaydi. Natijada ta'limda insonparvarlik, o'quvchi shaxsiga hurmat, uning ichki dunyosiga ijobiy munosabat, axloqiy mas'uliyat va ruhiy tarbiya masalalarini milliy manbalarga tayangan holda talqin etish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasi aynan shunday ehtiyojga javob bera oladigan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarini milliy-ma'naviy zamin bilan uyg'unlashtirish imkonini beruvchi serqatlam g'oyaviy manbadir. Chunki bu konsepsiya shaxsni faqat bilish subyekti sifatida emas, balki qalb egasi, his-tuyg'ulari, ehtiyojlari, irodasi va ijtimoiy missiyasiga ega mavjudot sifatida ko'radi. Ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi ham aynan shu keng qamrovli yondashuvni talab etadi.

Shu sababli mazkur tadqiqotning dolzarbligi tasavvufiy pedagogik merosni zamonaviy ta'lim qoidalari bilan qiyoslab o'rganish, ularning uyg'unlik jihatlari aniqlash va undan amaliy-metodik xulosalar chiqarish zarurati bilan belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasi asrlar davomida Sharq falsafasi, islom axloqiy tafakkuri va pedagogik fikrining markaziy g'oyalaridan biri bo'lib kelgan. Bu konsepsiya insonni nafaqat ma'naviy yetuklik timsoli sifatida, balki jamiyatning ruhiy muvozanatini ta'minlovchi, o'z ustida ishlovchi, ijtimoiy mas'uliyatni his etuvchi shaxs sifatida talqin etadi. Zamonaviy ta'lim paradigmasida esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (learner-centered education) g'oyasi shunga yaqin maqsadni – insonning individual rivojlanish imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, o'z-o'zini anglash va ijtimoiy faolligini oshirishni – ko'zda tutadi.

Tasavvufda "komil inson" tushunchasi Ibn Arabiy, Al-G'azzoliy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Jaloliddin Rumiy kabi mutafakkirlarning asarlarida chuqur tahlil qilingan. Ibn Arabiy (XIII asr) "Fusus al-hikam" asarida komil insonni "ilohiy haqiqatning zohir bo'lishi" deb talqin qilib, uni borliqdagi uyg'unlik va ma'naviy muvozanatni ifoda etuvchi markaziy mavjudot sifatida ko'rsatgan. Bahouddin Naqshband esa "Dil ba yoru, dast ba kor" tamoyili orqali insonning ichki kamoloti bilan tashqi faoliyati o'rtasidagi uyg'unlikni pedagogik mezon darajasiga ko'targan.

Al-G'azzoliy "Ihyo ulum ad-din" asarida komil insonni "ilm bilan amalni, zohir bilan botinni, aql bilan qalbni birlashtiruvchi shaxs" sifatida tasvirlaydi. Ushbu qarashlar, aslida, zamonaviy ta'limdagi kognitiv, emotsional va aksiologik rivojlanish komponentlariga to'liq mos keladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ta'lim psixologiyasida shaxs markaziga yo'naltirilgan yondashuv keng rivojlandi. K. Rojers (1961) "Freedom to Learn" asarida o'qituvchini "rivojlanishga yo'l ko'rsatuvchi" sifatida, o'quvchini esa "tajriba orqali o'rganuvchi faol subyekt" sifatida talqin qiladi. J. Dyui (1938) "Experience and Education" konsepsiyasida ta'limni insonning shaxsiy tajribasi va ijtimoiy faoliyati bilan uzviy bog'lash zarurligini ta'kidlaydi.

Hozirgi ta'limda kompetensiyaviy, konstruktivistik va aksiologik yondashuvlar aynan shaxsning o'zini anglash, ichki motivatsiya, axloqiy tanlov va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishni maqsad qiladi. Bu jihatlari tasavvufdagi "nafsnı poklash", "muhabbat va xizmat" g'oyalari bilan mazmunan o'xshashdir.

So'nggi yillarda O'zbekiston, Turkiya va Malayziya olimlari tomonidan tasavvuf pedagogikasining didaktik imkoniyatlari keng o'rganilmoqda. A. Karimov (2019) o'z tadqiqotlarida "komil inson" konsepsiyasini zamonaviy tarbiya nazariyasi bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. S. Abdullayeva (2021) esa tasavvufiy ta'limotda "ruhiy intizom" va "muhabbat orqali o'rgatish" tamoyillarini ijtimoiy-emotsional ta'lim bilan bog'laydi.

Xalqaro miqyosda esa A. Kadi (2018), J. Chittick (2020) va W. Chittick (2012) singari tadqiqotchilar Ibn Arabiy va Rumiy asarlarida aks etgan komil inson nazariyasini postmodern ta'lim etikasi bilan qiyoslab, tasavvufdagi axloqiy tarbiya modellarining universal ahamiyatini ko'rsatgan.



Shuningdek, UNESCO (2023) tomonidan ilgari surilgan “Humanistic and Values-Based Education” strategiyasi ham tasavvufdagi insonparvarlik, rahm-shafqat va xizmat g'oyalariga yaqin tamoyillarni ilgari suradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada shu nuqtayi nazardan quyidagi savollarga javob izlanadi:

- tasavvufda komil inson qanday sifatlar majmui bilan tavsiflanadi;
- bu sifatlar hozirgi ta'limda shakllantirilishi zarur bo'lgan kompetensiyalar bilan qanchalik mos keladi;
- murshid–murid munosabati hozirgi pedagogik muloqot va mentorlik tamoyillariga qanday yaqinlashadi;
- va nihoyat, tasavvufiy g'oyalarni zamonaviy ta'lim muhitiga ko'chirayotganda qanday didaktik moslashtirish tamoyillariga amal qilish lozim bo'ladi.

Tadqiqot metodologik jihatdan uchta asosiy manbaga tayanadi:

1. Klassik tasavvuf manbalari

Birinchi manba sifatida tasavvufga doir klassik asarlar va ularning talqinlari o'rganildi. Jumladan, Jaloliddin Rumiy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Ibn Arabiy, Abu Homid al-G'azzoliy kabi mutasavviflarning “komil inson”, ruhiy poklanish, muhabbat va xizmatga asoslangan tarbiya haqidagi qarashlari matnshunoslik va mazmuniy tahlil usullarida ko'rib chiqildi.

Ushbu manbalardan komillikning asosiy belgilari sifatida ma'rifat, muhabbat, ixlos, sabr, ijtimoiy mas'uliyat, xizmat, nafsni tiyish, doimiy zikr holati, suhbat va murshidga bog'liqlik kabi kategoriyalar ajratib olindi. Ularning har biri shaxsni ichki poklanish, ijtimoiy foydalilik va ruhiy barqarorlik yo'lida shakllantiruvchi pedagogik qadriyat sifatida tahlil qilindi.

2. Zamonaviy pedagogika va psixologiya manbalari

Ikkinchi manba sifatida zamonaviy ta'lim va psixologiyada keng qo'llanilayotgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, konstruktivizm, ijtimoiy-ta'limiy motivatsiya, refleksiv ta'lim hamda ijtimoiy-emotsional o'rganish nazariyalari asos qilib olindi.

Bu yo'nalishda Lev Vygotskiy, K. Rojers, J. Bruner, X. Gardner, J. Dyui kabi olimlarning ishlari, shuningdek, hozirgi kompetensiyaga asoslangan o'quv dasturlari bo'yicha adabiyotlar tahlil qilindi. Ularning asosiy kategoriyalari tasavvufiy pedagogik g'oyalar bilan qiyoslab, “komil inson” konsepsiyasi va zamonaviy ta'limdagi shaxsiy rivojlanish, motivatsiya, refleksiya va ijtimoiy mas'uliyat tushunchalari o'rtasidagi mushtarakliklar aniqlashtirildi.

3. Milliy ta'lim siyosati va normativ-huquqiy hujjatlar

Uchinchi manba sifatida O'zbekiston Respublikasining ta'limni insonparvarlashtirish, raqamlashtirish va kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlari o'rganildi. Xususan, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi hamda Oliy ta'lim standartlaridagi tarbiya, shaxs rivoji va qadriyat komponentlari tahlil qilindi.

Maqsad – tasavvufiy qadriyatlarni bevosita emas, balki ularning ruhini saqlagan holda zamonaviy ta'lim maqsadlari va mezonlari tarkibiga kiritish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Qo'llanilgan metodlar:

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy yondashuv, konseptual rekonstruksiya, aksiologik tahlil hamda pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

- Qiyosiy tahlil tasavvufda komillikka erishish bosqichlarini zamonaviy ta'limdagi shaxsiy rivojlanish bosqichlari bilan solishtirish imkonini berdi.
- Konseptual rekonstruksiya yordamida tasavvufiy g'oyalar zamonaviy pedagogik terminologiya va kategoriyalar orqali qayta ifodalandi.
- Aksiologik tahlil orqali “komil inson”ning qadriyat markazlari ajratilib, ularning ta'lim-tarbiya jarayonini ma'naviy boyituvchi jihatlari yoritildi.
- Pedagogik modellashtirish asosida esa “komil inson” konsepsiyasi va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'rtasidagi integratsion bog'liqlik sxematik jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tasavvufda “komil inson” deganda oʻzini bilish orqali Robbini tanigan, nafsini tarbiyalab qalbini poklagan, ichki va tashqi odobni uygʻunlashtirgan, insonlarga rahm-shafqat bilan munosabatda boʻladigan hamda oʻz ijtimoiy vazifasini muhabbat bilan ado etadigan shaxs nazarda tutiladi. Bu taʼrifning markazida insonning ikki yoʻnalishli kamoloti yotadi: birinchisi – Alloh bilan bogʻliq ruhiy-intellektual aloqaning chuqurlashuvi, ikkinchisi esa – bandalar bilan muomala, xizmat va masʼuliyatning mustahkamlanishidir. Shunday qilib, komillik faqat ichki tajriba emas, balki tashqi faoliyatda namoyon boʻlishi zarur boʻlgan holatdir.

Zamonaviy taʼlimda esa shaxsga yoʻnaltirilganlik oʻquvchini bilim subyekti sifatida tan olish, uning avvalgi tajribasiga tayangan holda yangi oʻquv vaziyatlarini tashkil etish, shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish, oʻqituvchi va oʻquvchi munosabatlarini gorizontol muloqot ruhida qurish hamda oʻquvchini faollikka undash kabi komponentlarni qamrab oladi. Ushbu komponentlarning har biri tasavvufdagi tarbiyaviy tamoyillar bilan ichki jihatdan uygʻunlik kasb etadi.

1. Murshid-murid munosabatining shaxsga yoʻnaltirilgan mohiyati

Tasavvufda murshid oʻz muridini shaxs sifatida qabul qiladi. Unga hukm oʻtkazmaydi, balki uning ichida allaqachon mavjud boʻlgan ilohiy imkoniyatlarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv K. Rojersning shaxsga yoʻnaltirilgan terapiyasidagi “shartsiz qabul qilish”, “empatiya” va “kongruentlik” tamoyillari bilan bevosita hamohangdir. Sufiy murshid ham muridning kamchiliklarini koʻrsa-da, uni tanqid orqali emas, balki muhabbat va suhbat orqali oʻzgartiradi. Hozirgi taʼlimda oʻqituvchining fasilitator, yoʻlboshlovchi, mentor yoki tutor sifatidagi roli aynan shunday psixologik va kommunikativ kayfiyatni talab etadi.

2. Individuallashtirilgan taʼlim va muridning shaxsiy yoʻli

Tasavvufda komillikka eltuvchi yoʻl shaxsiylashtirilgan yoʻl sifatida qaraladi. Har bir muridning holati, ruhiy darajasi, qobiliyati va dunyoqarashi inobatga olinadi. Murshid unga topshiriqlarni hamma uchun bir xil shaklda bermaydi, balki tayyorgarligiga qarab tanlaydi. Bu yondashuv zamonaviy didaktikadagi differensial va individual taʼlim, moslashuvchan oʻqitish va shaxsiy oʻquv yoʻli tushunchalariga juda yaqin keladi. Shu tariqa, tasavvufiy tarbiya usullari zamonaviy pedagogikada izlanayotgan “moslashtirilgan taʼlim” konsepsiyasining tarixiy-madaniy ildizlarini koʻrsatib beradi.

3. Qalbni tarbiyalash va ijtimoiy-emotsional oʻrganish oʻxshashligi

Tasavvufda oʻqish va tarbiya jarayoni faqat aqlga emas, balki qalbga ham qaratilgan. Qalbni tarbiyalash uchun zikr, tafakkur, sukut, suhbat majlislari, xizmat qilish, adabni rioya etish kabi usullar qoʻllaniladi. Zamonaviy pedagogikada esa shu mexanizm ijtimoiy-emotsional oʻrganish, axloqiy-ruhiy tarbiya, xarakter taʼlimi, mindfulness va refleksiya kabi nomlar ostida kiritilgan. Farqi shundaki, tasavvuf bu usullarni ilohiy maqsad bilan bogʻlaydi, zamonaviy taʼlim esa psixologik va ijtimoiy farovonlik bilan izohlaydi. Ammo mazmun jihatidan ikkisiining maqsadi bir – oʻquvchini hissiy barqaror, hamkorlikka tayyor va oʻzini anglagan shaxsga aylantirishdir.

4. Xizmat paradigmasi va ijtimoiy kompetensiyalar

Komil inson konsepsiyasining markazida ijtimoiy masʼuliyat turadi. “Xalq ichra, dil Xudo bilan”, “dil ba yoru, dast ba kor” yoki “xalqqa xizmat – Haqqa xizmat” kabi tamoyillar taʼlimning ijtimoiy yoʻnaltirilganlik aspektini yoritadi. Shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim ham oʻquvchini yakka holda kamolga yetkazish emas, balki uni jamiyatga foydali, hamkorlikka tayyor, ijtimoiy rollarni ado eta oladigan, muammolarni tinch yoʻl bilan hal etuvchi shaxsga aylantirishni koʻzlaydi. Shunday qilib, tasavvufdagi xizmat paradigmasi hozirgi taʼlimdagi ijtimoiy kompetensiyalar, fuqarolik masʼuliyati, volontyorlik va loyiha asosidagi taʼlim elementlari bilan uygʻunlashtirilishi mumkin.

5. Dialogik suhbat va kommunikativ taʼlim

Tasavvufda tarbiya jarayoni muloqotga tayangan. Suhbat majlislari, soʻfiylar davralari, pining nasihat-lari, qasida va masnaviylar orqali bilim berish – bularning barchasi dialogik tabiatga ega. Zamonaviy oʻqitish texnologiyalarida ham dialogik taʼlim, interaktiv metodlar, kichik guruhli ishlash, “oʻqituvchi–oʻquvchi–guruh” kommunikativ modeli aynan shu tabiatni aks ettiradi. Shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlimning eng muhim belgisi – oʻquvchining ovozini eshitish, uning fikrini hisobga olish va hayotiy tajribasini bilim almashuv jarayoniga kiritishdir. Sufiy suhbatlarida esa muridning ruhiy holati, savollari va idrok darajasi inobatga olingan.

6. Tasavvufiy gʻoyalarni zamonaviy taʼlimga moslashtirish tamoyillari

Albatta, tasavvufiy merosni bevosita taʼlim auditoriyasiga koʻchirish mumkin emas, chunki u diniy-maʼrifiy kontekstda shakllangan. U yerda murshid – hokim, murid – itoat etuvchi mavqega ega boʻlgan. Hozirgi taʼlim esa avtoritar modeldan voz kechib, demokratik muloqot, oʻquvchi subyektivligi, gender tengligi va inklyuzivlik tamoyillarini ustuvor deb biladi. Shu bois tasavvufiy gʻoyalarni didaktik moslashtirish lozim.



Bu moslashtirishni uch bosqichda ko'rsatish mumkin:

1. **G'oyaviy-deontologik bosqich** – tasavvufdagi insonparvarlik, rahm-shafqat, sabr, xizmat va halollik qadriyatlarini dars va tarbiyaviy faoliyatlarda mavzu sifatida kiritish.
2. **Metodik bosqich** – suhbat, tafakkur, o'z-o'zini tahlil (muhasaba) kabi tasavvufiy usullarni zamonaviy pedagogik metodlarga integratsiya qilish.
3. **Muvofiq muhit yaratish bosqichi** – ta'lim muassasasida hurmat, osoyishtalik, ma'noli muloqot, o'zaro yordam va madad muhitini kuchaytiruvchi ijtimoiy-psixologik sharoitlarni shakllantirish.

Umumiy natija

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasi hozirgi ta'limning uch asosiy qatlamini – bilimiy, axloqiy va ruhiy jihatlarni – birlashtiruvchi integrativ g'oya sifatida talqin qilinishi mumkin. U shaxsni faqat bilim oluvchi emas, balki ma'naviy javobgar va ijtimoiy foydali mavjudot sifatida ko'rishga undaydi. Shu tariqa, tasavvufiy g'oyalarni zamonaviy ta'limga tatbiq etish shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ichki mazmunini mahalliy ma'naviy an'ana bilan boyitib, unga chuqurlik, izchillik va barqarorlik baxsh etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasi bilan zamonaviy shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'rtasida mazmuniy, metodik va aksiologik jihatdan chuqur o'xshashliklar mavjud. Tasavvufda komil inson – bu bilganini amal bilan tasdiqlovchi, o'zini muntazam nazorat qiluvchi, odamlarga xizmatni ma'naviy burch deb biluvchi, suhbat va muhabbat orqali boshqalarni ham kamolot sari yetaklovchi shaxsdir. Zamonaviy ta'limda esa shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'zini anglagan, ichki motivatsiyasi barqaror, muloqotga ochiq va ijtimoiy foydali o'quvchi shaxsini shakllantirishni maqsad qiladi.

Shunday qilib, tasavvufiy meros ta'limni insonparvarlashtirish, tarbiya komponentini kuchaytirish va o'qituvchi rolini murshidga o'xshash yo'l boshlovchi sifatida qayta talqin qilish imkonini beradi. O'quvchi esa shu yondashuvda muridga o'xshash izlanishdagi shaxs sifatida qaraladi – u faqat bilim oluvchi emas, balki o'z ruhiy dunyosini va ijtimoiy burchini anglovchi faol subyektda aylanadi.

Amaliy takliflar:

1. **Ta'lim mazmuniga tasavvufiy qadriyatlarni integratsiya qilish.** Dars, seminar va tarbiyaviy tadbirlarda tasavvufda ifoda etilgan insonparvarlik, sabr, rahm-shafqat, halollik, xizmat, muhabbat, adolat kabi axloqiy mavzularni aktual muammolar bilan bog'lab o'rganish.
2. **O'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat va hamdardlikni shakllantirish.** Guruh loyihalari, volontyorlik dasturlari, murabbiylik va jamoaviy xizmat faoliyatlari orqali o'quvchilarning "xizmat – Haqqa xizmat" tamoyilini amalda his etishlariga sharoit yaratish.
3. **O'qituvchilarning pedagogik rolini yangilash.** O'qituvchini bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, suhbatdosh va ruhiy-axloqiy namuna sifatida tayyorlash; malaka oshirish dasturlarida "suhbat, tafakkur, refleksiya" asosidagi metodlarni joriy etish.
4. **Ma'naviy muhitni mustahkamlash.** Ta'lim muassasasida hurmat, osoyishtalik, muloqot madaniyati, o'zaro yordam va adabiy merosga hurmat ruhini kuchaytiruvchi psixologik iqlim yaratish.
5. **Integrativ ta'lim modelini shakllantirish.** Mahalliy ma'naviy merosga tayangan, shu bilan birga xalqaro pedagogik talablarga javob beradigan komil shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini ishlab chiqish. Bu model bilimiy, axloqiy va ruhiy rivojlanish komponentlarini uyg'unlashtirgan holda barqaror ta'lim tizimini yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абу Хомид ал-Ғаззолий. Ихё улум ад-дин. – Қоҳира: Дар ал-фикр, 2004. – 4 ж.
2. Ибн ал-Арабий М. Ал-инсан ал-камиль фи маърифат ал-авахир ва ал-аваил. – Бейрут: Дар ал-кутуб ал-илмия, 1999. – 312 б.
3. Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. Тасаввуфий қарашлар талқини. – Техрон, 2003. – 456 б.
4. Баҳоуддин Нақшбанд. Рисолалар. / Таҳрир ва изоҳлар муаллифи: А. Ҳайитметов. – Тошкент: Фан, 1993. – 186 б.
5. Қодиров А. Тасаввуф ва маънавият. – Тошкент: Маънавият, 2001. – 164 б.
6. Rogers C. On Becoming a Person. – Boston: Houghton Mifflin, 1961. – 420 p.
7. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – 91 p.
8. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983. – 412 p.
9. Ўзбекистон Республикаси "Таълим тўғрисида"ги Қонуни. – Тошкент, 2020.
10. Назаров Қ. Миллий маънавият ва тарбия. – Тошкент: Ўқитувчи, 2015. – 208 б.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.